

**ТАЛАБА-YOSHLARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

N.S. ISMAILOVA

**Respublika ma'naviyat va ma'rifat
Markazi qoshidagi Ijtimoiy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kamoloti rivojida kitobxonlik madaniyatining o'rni haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, yoshlarda kitob o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda duch kelish mumkin bo'lgan to'siqlar, uni bartaraf etish yo'llari, mavjud muammolarning yechimlari yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobxonlik, elektron kitob, audio kitob, ta'lim, ahloq, tajriba, metod, murabbiy, ommaviy madaniyat.

Abstraktnyy. V dannoy state rassmatrivaetsya rol kultury chteniya v razvitiyu chelovecheskogo razvitiya. Budut osvencheny prepyatstviya, s kotorymi mojno stolknutsya pri formirovaniyu navykov chteniya u molodeжи, puti ix preodoleniya i puti resheniya sushchestvuuyushchix problem.

Klyuchevыe slova: Kniga, chtenie, elektronnaya kniga, audiokniga, obrazovanie, etika, opyt, metod, trener, massovaya kultura.

Abstract. This article discusses the role of reading culture in the development of human development. Obstacles that can be encountered in the formation of reading skills in young people, ways to overcome them, and solutions to existing problems will be highlighted.

Key words: Book, reading, e-book, audio book, education, ethics, experience, method, coach, popular culture.

Insoniyat tarixida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri kitobning kashf etilishi va kitob bosish san'atining yaratilishidir. Kitob har qanday yoshdagi kishilar turmush tarzining ajralmas bir qismi bo'lib, inson hayotining barcha bosqichlarida shaxsni tarbiyalash va aqliy rivojlanish vositasi sifatida xizmat qilib keladi. Kitoblar barcha zamonlarda bilim va axborot uchun eng zarur hamda ishonchli manba ekani, insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi va eng qulayi ham aynan bosma kitoblar ekani o'z isbotini topib ulgurgan. Haqiqyatdan, kitob turli fan sohalarga oid ma'lumotlarni toplash, saqlash va tarqatish usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tafakkurining rivojlanib borishi, keyinchalik esa jamiyatda ijtimoiy-madaniy jarayonlar indikatori sifatida bosma nashrlar, xususan kitob va yozuv doimo asosiy vosita hamda tirkak bo'lib kelgan.

Bugun mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimi mukammal tarzda shakllanib, rivojlanib borayotgan davrda yosh avlodning ma’naviy-ahloqiy tarbiya tizimiga alohida urg‘u berish, bolalar va yoshlari o‘rtasida kitobxonlikka e’tibor qaratish muhim ekanligini unutmaslik zarur. Farzandlarga ta’lim-tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois oiladagi muhit, ota-onaning bola tarbiyasida kitob mutolasiga bo‘lgan munosabati, farzandlarga kichik yoshidanoq kitob o‘qib berish odati, o‘qilganlardan xulosa yasash, so‘zlashish va fikrlar almashinuviga hamda bolalikdan kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratmoq lozim. Maktab o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tashkiliy-uslubiy modelini takomillashtirish, kitob o‘qishga qiziqishni tarbiyalashning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismongan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa yoshlari, xususan maktab o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning barcha bosqichlarini ilmiy tarzda takomillashtirib borishni taqazo etidi.

Sharq faylasufi, ensiklopedik olim Abu Nasr Forobiyning fikricha, ta’lim-tarbiya jarayonining har bosqichida ta’lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi o‘ziga xos tarzda fikrlash, tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshadi. Inson tug‘ilganidan fikrlash quvvatiga ega bo‘ladi va u bolaning o‘sishi bilan rivojlanib boradi. Dunyoda hech bir narsa kitob mutolasi kabi tafakkur qilish, fikrlash hamda borliqni anglashga yordam berish xususiyatiga ega emas. Chunonchi, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlandiya, Norvegiya, Yaponiya singari dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha ta’lim muassasalari va maktab o‘quvchilari orasida badiiy kitob o‘qish, kitobxonlik ko‘nikma, malaka hamda madaniyatini shakllantirish va rivojlantirib borish shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida baholanadi. Bunda yosh kitobxonlarning asarlarni mutolaa etishga bo‘lgan munosabati dinamik ko‘rsatkichlarga muvofiq tahliliy ravishda o‘rganib boriladi. O‘rganishlar natijasi bolalar va yoshlari o‘rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ahloqiy yondashuvlarning qaror topishi bilan bog‘liq holda bosma, elektron kitoblarni o‘qish hamda audio kitoblarni tinglash an’analarini shakllanganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” kabi yangi ilmiy kategoriyalarning yuzaga kelishi yoshlarning falsafiy dunyoqarashi uchun tahdidli muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Jahon yoshlari psixologiyasida oilaviy, ya’ni ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, kitob mutolaa qilish madaniyati, milliy-diniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat sovuqlashib, begonalashish tendensiyalari

kuchayishi kuzatilmogda. Mamlakatimizda bu kabi salbiy holatlarning oldini olish, yoshlarni turli yot g‘oyalalar, tahdidlardan himoya qilish, ularning tarbiyasini to‘g‘ri amalga oshirish borasida qator vazifalar belgilanib, chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagি

PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida, 2020 yil 14 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VM-781-son Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Dasturda belgilangan chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

1. Aholi, avvalo yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash;
2. Milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish;
3. Ta’lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – “Yagona elektron kutubxona” loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;
4. Hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish; har yili yosh ijodkorlarning innovatsion loyihalarni amalga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshishini ta‘minlash;
5. O‘quvchilarning qiziqishini o‘rganish, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish;
6. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash;
7. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish.

Mazkur dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirishni belgilab beruvchi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

Birinchi bosqichda (2020-2021 yillar) tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar;

Ikkinci bosqich (2022-2023 yillar) kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar;

Uchinchchi bosqich (2024-2025 yillar) yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning madaniy savodxonligi o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Shuningdek, Dasturda belgilab qo'yilganidek, 2021 yildan boshlab har yili aprel oyida mamlakatimizda "Kitobxonlik haftaligi" o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev "Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasida ta'lim, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish yuzasidan qator vazifalarni belgilab berilgan edi. Bular qatorida o'quvchi-yoshlarning badiiy, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi.

Inson umri davomida kitob o'qishida ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamolotga intilishi yo'lida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda vatanga muhabbat, milliy va umumiy insoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Bugungi kunda kitobxonlar ya'ni foydalanuvchilar qo'liga yetib borayotgan barcha kitoblar mutolaa uchun ham, shakl-mazmun nuqtai nazaridan davr talablariga zamonaviy estetik didiga to'la javob beradi deyish mumkin. Mamlakatimizda har yili "Infolib", "Central Asia" kitobxonlik tadbirlar tashkil etilib, unda o'quvchi yoshlarning faol ishtiroki ta'minlanib kelinmoqda. Aytish joizki, ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini qondirish o'z samaralarini berib bormoqda. Demak, internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'rnini hech narsa egallay olmaydi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqllovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Zero, kitob mutolaasi yosh kitobxonlar uchun ham yoshi kattalar uchun ham – qalb chirog'i, tafakkur qanoti demakdir. Sohibqiron Amir Temur so'zлari bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va

aql-idrokning-ilmu donishning asosidir”. Hayotni yaratuvchi murabbiydir. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan “Kitob o‘qimagan insonning ham millatning ham kelajagi yo‘q” – deb aytib o‘tilgan fikr zamirida chuqur ma’no mujassamdir. Yosh avlod orasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish barkamol inson qilib tarbiyalash, o‘zbek adabiyoti va san’ati, madaniyatining yirik vakillari bilan tanishtirish axborot-kutubxonaga kengroq jalg qilish maqsadida turli ma’naviy - ma’rifiy tadbirlar axborot kutubxona markazi xodimlari tomonidan o‘tkazib kelinmoqda.

Quyida o‘quvchi yoshlar o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta usullarni keltirib o‘tish mumkin:

1. Kitob (asar)ni qismlarga bo‘lib o‘qish. Ya’ni kitobxon tomonidan kitobni oz-ozdan, biroq to‘liq o‘qib chiqishini ta’minalash maqsadida, o‘qituvchi (tarbiyachi) yoki ota-onada matnni qalam yordamida bir nechta qismlarga ajratib chiqish va ketma-ketlikda raqamlash usuli;
2. Qiziqarli kitobning boshi, o‘rtasi yoki yakunini o‘quvchiga gapirib berish va tinglanmagan qismini uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda o‘qib olishga undash usuli;
3. Kitob (asar) mazmunidan tuzilgan bir nechta savollarga javob berish (topish) usuli.

Bu kabi kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlanirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan usul (texnologiya)larni yana ko‘plab yaratish, taklif etish va ularni amaliyotda qo‘llash mumkin. Biroq ko‘zlangan eng asosiy maqsad—kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy shakllarini amalgalash oshirish mexanizmlarini puxta yo‘lga o‘ylab chiqish lozim. Shaxsda kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobjiy munosabatni qaror toptirish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni bolalikdan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zaru muhit yoki shart-sharoitni yaratish bu kitobxonlikni shakllantirishga imkon beradi. Ayniqsa, maktab o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘qituvchi, murabbiy va ota-onalardan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Bu yoshdagagi kitobxonlarda mutolaa ko‘nikmalarini shakllanishi va o‘z vaqtida rivojlanishi esa yurtimizda ana shu maqsadga yo‘naltirilgan islohotlar mazmuni va amalgalash oshirish mexanizmining puxta asoslanganligiga bog‘liq. Shuningdek, maktab yoshidagi bolalarda kitobxonlik ko‘nikmasini madaniyat darajasida shakllanishida bolalar adabiyoti, o‘smirlar adabiyoti, oilaviy o‘qish, ta’lim jarayoni (adabiyot darslari),

ko‘rik-tanlovlarning tashkil etilishi kabi omillarning pedagogik-psixologik, madaniy-ahloqiy ta’siri yuqori ekanini unutmaslik zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017. – № 6.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni // URL:<http://www.lex.uz>
3. Sh.M. Mirziyoev “Taqnidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi lozim. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 312 b.
4. B.B. Jahongirov. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmiy-texnikaviy aloqlari // O‘tmishga nazar. – T.: 2021. – B. 16-21.
5. D.A. Muminova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni shakllantirishda ajdodlar milliy merosidan foydalanish // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan: 2019.- №2. – B. 447-455.
6. D.A. Muminova. Adabiy ta’limga texnologik yondashuv // Garmonichno razvitoe pokolenie – uslovie stabilnogo razvitiya Respublikи Uzbekistan: Sbornik nauchno-metodicheskix statey №9. – 2020. – B. 235-255.